



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2020-yil yanvar-aprel

2020-yil yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida jami 4 614,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,4 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi


(mlrd. so'm)



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 191,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 25,8 % ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 5,5 % punktga ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 60,7 % to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,4 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,2 % ni tashkil etgan holda 2 802,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 13,5 % ni tashkil etdi va 620,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 75,2 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **66,9 %** yoki **3085,1 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **960,1 mlrd. so'mlik** ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **92,4 % ni** tashkil qildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan yangi qurilish ishlari hajmi **1 718,6 mlrd. so'mlik** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,4 % ni** tashkil etdi.


Norasmiy sektor bo'yicha yangi qurilish hisobidan **406,4 mlrd. so'm** ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **60,3 % ni** tashkil etdi.






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




-  *Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Fuqarolik obyektlari bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 17,5 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi, 59,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, jamiga nisbatan 23,2 % ni tashkil qildi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Fuqarolik obyektlari bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlari bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 62,4 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 13,0 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 37,6 % ni (13,0 % punktga kamayish) tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga ko'paydi va 14,6 % ni tashkil etdi.

Qolgan 85,4 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 136,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,0 % ni tashkil qildi, yaʼni 2019-yil yanvar-aprel holatiga nisbatan 1,8 % punktga kamaygan.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 4 477,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,0 % ni tashkil qildi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so`m)




○—○ o`lish sur`ati % da

Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o`lish sur`ati Yashnobod tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`lish sur`ati 86,8 % ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Mirobod (tumandagi qurilish hajmining 49,6 % ni tashkil etdi va Olmazor (mos ravishda 41,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Bektemir tumanida (4,6 %) kuzatildi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 88,5 % ni tashkil etdi.






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahrining qurilish ishlari bo'yicha yuqori o'sish sur'ati 85,4 % ga ko'tarildi:

- "Yunusobod" va "Sergeli" metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo'lida elektropoyezdlar uchun temir yo'l qurilishi;
- Ko'ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi "Navro'z" istirohat bog'ining qurilishi;

- "Toshkent-Sharqiy" aerodromi bazasida fuqarolik aviatsiyasi zamonaviy aeroport majmuasi qurilishi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **Sh.Samiyev**
Aloqa telefoni: **(0371) 230-88-19**